

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI



Tarix fakulteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrası

REFERAT

Fan: O‘zbekiston tarixi

Mavzu: “Temur tuzuklarida davlat boshqaruvi”

***Bajardi: Abduxoliqov V
Tekshirdi: ass. Qo‘shbaqov H.A.***

SAMARQAND – 2013 YIL.

Kirish

Mustaqillik in'om etgan eng ulug' ne'matlardan biri — bu, xalqimizning o'zligini bilish, o'z tarixini emin-erkin o'rganish huquqi bo'ldi. Qadriyatlarimizni tiklash, merosimizga xolis munosabatni qaror toptirish, aziz allomalar nomini sharaflash, ularga bugungi avlodning yuksak hurmat-e'tiborini bajo keltirish istiqlol yillarida amalga oshirilgan behad ulkan savobli ishlar sirasidandir. O'tgan qisqa davr mobaynida bobokalonimiz buyuk Sohibqiron Amir Temur hazratlarining tabarruk nomi, hayoti va mislsiz jasoratlarga to'la faoliyati xalqimiz ma'naviy dunyosining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani shundan bir dalolat. Mustaqillik in'om etgan eng ulug' ne'matlardan biri — bu, xalqimizning o'zligini bilish, o'z tarixini emin-erkin o'rganish huquqi bo'ldi. Qadriyatlarimizni tiklash, merosimizga xolis munosabatni qaror toptirish, aziz allomalar nomini sharaflash, ularga bugungi avlodning yuksak hurmat-e'tiborini bajo keltirish istiqlol yillarida amalga oshirilgan behad ulkan savobli ishlar sirasidandir. O'tgan qisqa davr mobaynida bobokalonimiz buyuk Sohibqiron Amir **Temur** hazratlarining tabarruk nomi, hayoti va mislsiz jasoratlarga to'la faoliyati xalqimiz ma'naviy dunyosining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani shundan bir dalolat gav. Amir Temur bugungi davrda nafaqat tariximizni gavdalandiradi, balki jamiyat boshqaruvida, uni shakllantirishda tajriba sifatida asqotadi. Bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurning suvrati va siyrati haqida ko'plab tarixiy asarlarda ma'lumotlar uchraydi. Buyuk o'tmishimizga daxldor bunday ma'lumotlarda Amir Temur siymosining nafaqat jahongir, qudratli davlat asoschisi, balki barkamol haxs sifatidagi ulug'vor ishlari ham gavddalanadi. Amir Temur shaxsi yosh avlodni Vatanga muhabbat va yurtparvarlik ruhida tarbiyalash uchun ham buyuk ibrat namunasi bo'lib xizmat qilayotir. Shu ma'noda ulug' bobokalonimiz hayoti va faoliyati bilan bog'liq tarixiy haqiqatni o'rganish, Vatanimiz tarixini sho'rolar davrida to'qib chiqarilgan turli uydirma va soxta talqinlardan holi holda tasavvur etish va targ'ib qilishda o'tmishning mo'tabar manbalarini "tilga kiritish"ga ehtiyoj nihoyatda katta.

Sohibqiron bobomizning vasiyat ohangida aytilgan bu donishmandona so'zlari istiqloлга erishgan yurtimizda davlatchilik an'analarini shakllantirishda dasturulamal bo'layotgani boisi ham shunda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta`biri bilan aytganda, "Biz o'z yurtimiz va xalqimizning sharaflı tarixi bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Mana shu muqaddas faxr tuyg'umizning muazzam timsoli - shubhasiz, ulug' jahongir bobomiz Amir Temur Muhammad Tarag'aydir. Sohibqiron Amir Temur qadimiy Vatanimiz Turonni mo`g`ullar imperiyasining qariyb bir yarim asr davom etgan jabru - zulmidan xalos qilish uchun xalq ozodlik harakatiga yetakchilik qilib, sakkiz yildan ortiq qahramonona kurash olib bordi. Olimlar bu ulkan tarixiy voqealarni har tomonlama tadqiq etishi va ularning haqqoniy talqinlarini yaratish yo'lida hali ko'p ish qilishlari kerak. Sohibqironning xalq milliy-ozodlik harakatiga bosh bo'lib, unga muayyan yo'nalish va mazmun bag'ishlagan kurashlariga alohida to'xtalish kerak. O'zlikni anglash jarayoni kechayotgan, Vatanimiz dunyo uzra bo'y ko'rsatayotgan hozirgi kunlarda tarix zarvaraqlarini o'tkir nigoh bilan qayta ko'zdan kechirish, uning ibratli saboqlarini ko'ngilga joylash istiqloldan bahra olib, shu tuproqda umrguzaronlik qilayotgan har bir insonning farzandlik burchidir. Atoqli adibimizning ko'p yillik izlanishlari natijasida yaratgan mazkur ilmiy badiasi bu jihatdan har birimizning ma`naviy mulkimiz bo'lib qolishi shubhasiz.

ASOSIY QISM .

Amir Tyemur to'g'risida uning zamondoshlari qimmatli yirik asarlar yaratganlar. G'iyosiddin Alining «Ro'znomayi gazovoti hinduston» («hindistonga qilingan g'azo urushi kundaligi»), Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafiddin Alining shu nomli («Zafarnoma») asarlari shular jumlasidandir. «Tuzukoti Tyemuriy» asari bular orasida aloxida o'rin tutadi.

«Tuzuki Tyemuriy» yoki «Tuzukoti Tyemuriy» odatda boshqa katta hajmli asarga ilova tarzida ko'chirilgan. Bu mustaqil yirik asar «Malfuzoti Tyemuriy» yoki «Voqyeoti Tyemuriy» («(Amir] Tyemurning tarjimai holi») dyeb atalib, uning yetti yasharligidan boshlab hayot yo'li haqida hikoya qiladi. Asar haqida ikki xil fikr mavjud. Ba'zilar bu ikki qismdan iborat bir asar dyegan fikrda, boshqa olimlar esa ikki mustaqil asarning bir muqovada jamlangani, dyeb yozadilar. Shuning uchun «Tuzukoti Tyemuriy» ni har ikki qismga byerilgan bir nom dyeb tushunganlar. Bu hol Sharq qo'lyozmalarining kataloglarida ma'lum chalkashliklar tug'dirgan. Tuzukoti Tyemuriy» — muhim tarixiy manba bo'lib, bunda qadimiy Turkistonning buyuk farzandi Amir Tyemur davlatining tuzilishi va boshqarilishi xususidagi nuktai nazarlari bayon etilgan.

«Tuzuki Tyemuriy» («Tyemur tuzuklari»), «Malfuzoti Tyemuriy» («Tyemurning aytganlari») va «Voqioti Tyemuriy» («Tyemurning boshidan kyechirganlari») nomlari bilan atalmish bu asar e'tiborga molik tarixiy manbalar jumlasidan. «E'tiborga molik» dyegani-mizning boisi shuki, uning nusxalari (qo'lyozmalari ham, toshbosma-lari ham) ko'p tarqalgan. «Tyemur tuzuklari»ni bugun jahonning ko'pgina mamlakatlarida, masylan, Sovyet Ittifoqi, Angliya, Frantsiya, AQSH, Finlyandiya, Daniya, Eron, Hindiston, Turkiya, Misr, Yaman kutubxonalaridan topsa bo'ladich O'z-o'zidan ma'lumki, qaysi bir asar qimmatli, amalda zarur bo'lsa, undan ko'proq nusxa ko'chirilgan. «Tyemur tuzuklari» ham shunday. U ko'proq sohibi tojlarga kyerak bo'lgan. SHuning uchun ham hukmdorlarning ko'pchiligi bu va shunga o'xshash asarlardan nusxa

ko`chirtirib, shaxsiy kutubxonalarida asraganlar va ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida ulardan muhim yo`l-yo`riq sifatida foydalanganlar. Masalan, buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning avlodi SHoh Jahon (1628—1657), Qo`qon xoni Muhammad Alixon (1821 — 1842) va Buxoro amiri Abdulahadxon (1885—1910) chapdast kotiblariga buyurib, «Tyemur tuzuklari»dan o`zlari uchun nusxa ko`chirtirganlari ma`lum, Ko`chirganda ham zo`r mas`uliyat va qunt bilan ko`chirganlar.¹ Hindistonlik muarrix Abdulhamid Lohuriy-ning (1654 y. vafot etgan) «Nodshonoma»sida (mavlaviy Kabirid-din Ahmad va Abdurahimlar amalga oshirgan nashr, Kalkutta, 1866-1872 y., I jild, 288-sahifa) bunday gap bor: «Hijriy 1047 (milodiy 1637—38) yili Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy dyegan shaxs SHoh Jahonga «Tuzuki Tyemuriy»ning forsiycha tarjimasini takdim etgan. Podsho tarjima bilan tanishib chiqi.b, uni Dyekan favjdori (qozi kaloni), istye`dodli yozuvchi Muhammad Afzal Buxoriyning (1651 yoki 1652 y. vafot etgan) qo`liga tutqazgan va SHarafuddin Ali YAzdiyning (1454 y. vafot etgan) mashhur «Zafarnoma» asariga solishtirib va kamchilik-lari bo`lsa, tuzatib, xattot va muarrixlari o`zidan qo`shgan ortiqcha joylari bo`lsa o`chirib tashlashni buyurgan. «Tyemur tuzuklari»ning shu kunlargacha yetib kyelgan qo`lyozma va toshbosma nusxalari o`sha Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy tarjimasi asosida yaratilgan. Bu birinchidan. Ikkinchidan, mazkur asar XVIII asrdan byeri (balki ancha burunroqdir, lyekits bu haqda qo`limizda ma`lumot yo`q) dunyo olimlarining diqqat-e`tiborini qozonib kyeladi. Masalan, asarning matni, tadqiqot va zarur ilmiy izohlar bi-lan 1783 yilda Angliyada, 1785 va . 1891 yilda Xindistonda, 1868 yili Eronda chop etildi.

Asar jaxon tillaridan bir nyechtasiga: frantsuz (1787), ingliz (1830), urdu (1845), rus (1894,1934) va eski o`zbyek (1835,1857, lyekin to`liq emas) tillariga tarjima qilinib, nashr etildi. Uning toshbosma nusxalari (Tyehron-1868, Toshkyent-1890 va h.k.) ham kyeng tarqalgan. Qiziq, bu tasodifiymi yoki

¹ Temur Tuzuklari. –T. 1991 yil 5-bet

qonuniymi-bilmadim, «Tyemur tuzuklari» ham, O`rta Osiyo zaminida yaratilgan ko`pgina ajoyib asarlar singari, avval o`zga yurtlarda, xususan, Yevropada shuhrat topdi.

«Temur tuzuklari» — podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini byelgilovchi risoladir. Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qismda jahon tarixida mashhur fotih, sarkarda va istye`dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Tyemurning yetti yoshi (1342)dan to vafotiga (1405 yil, 18 fyevral) qadar kyechedgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, aniqroq qilib aytganda, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo`lga kiritish, fyeodal tarqoqlikka barham byerish va markazlashgan davlat tuzish, qo`shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron hamda Avg`onistonni o`z tasarrufiga kiritish, Oltin O`rda hukmdori To`xtamishxon (1376—1395), butun Yevropaga qo`rquv va dahshat solgan Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389—1402)ga qarshi va nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism jahongirning nomidan aytilgan, va uning toju-taxt vorislariga atalgan o`ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo`shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo`shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida ko`rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi.

Yana shuni ham takidlash joizki, «Tuzuk» yozish odati Amir Tyemurdan avval ham bo`lgan, kyeyin ham. Bu odat aslida xitoylardan va turk-mog`ul xonlaridan qolgan. Masalan, turk xoqonlaridan qolgan «Qonunnoma», Chingizxondan qolgan «Bilik», Xondamir (1474—1535) yozgan «Qonuni Humoyun», Ruzbyexon (1458—1521 yoki 1530) ning qalamiga mansub bo`lgan va shayboniylardan Ubaydulla-xonning topshirig`i bilan yozilgan «Suluk al-muluk» (Podsholarga yo`l-yo`riq) shular jumlasidandir. Bunday asarlarda davlatni idora

qilish tartib-qoidolari, turli mansab egalari vazifalari, xayri sadaqa qilish tartibi, soliq solish va uni to'plash tartibi, harbiy yurishlarni o'tkazish va qo'zg'olonni bostirish qoidolari bayon etiladi.

Mutaxassis olimlarning (A. A. Syemyonov, Ch. Rye, E. G. Braun va boshqalar) so'zlariga qaraganda «Tyemur tuzuklari» boshda turkiy tilda yozilgan va uning bir nusxasi Yaman hokimi Ja'far poshaning kutubxonasida saqlangan. Yuqorida nomi tilga olingan Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiyning forsiycha tarjimasi ana shunday turkiycha nusxalardan biriga asoslangan, albatta.

Asarning muallifi ma'lum emas. Butun voqyea bir shaxs — Amir Tyemur nomidan hikoya qilinadi. Aslida shundaymi yoki Amir Tyemur aytib turgan, kotib yozib olganmi, yo bo'lmasa uning aytganlarini kimdir jam' qilib kitob tuzganmi, bu haqda qat'iy bir fikr aytish qiyin. Sharq mamlakatlarida bu mashhur asar chindan ham Amir Tyemur tarafidan yozilganligi va uning tarjimai holi ekanligi e'tirof qilinadi. Chunonchi, Somiyning «Qomus ul-a'lom» (Istanbul, 1891. 1727-byet) asarida Amir Tyemur «Tuzukot» unvonli qonunlar majmuasini qalamga olib, unda o'zining tarjimai holini bayon etgan» deyilgan. Tyemur bilan To'xtamishxon o'rtasidagi urushlar tarixini yozgan fransuz sharqshunosi M. Sharmua va rus harbiy tarixchisi M. I. Ivanin (1801-1874) «Tuzuklar»ni Amir Tyemur o'zi yozgan va u muhim avtobiografik asar, deyib aytganlar. Biroq yevropalik boshqa bir guruh olimlar (E. G. Braun, Ch. A. Stori, V. V. Bartold) «Tyemur tuzuklari»ni soxta asar, uni Amir Tyemur yozmagan, deyidilar. A. Yu. Yakubovskiyning fikricha, asar XVIII asrda Hindistonda yozilgan. Ingliz olimi Ch. A. Stori yuqorida nomi zikr etilgan Mir Abu al-Husayniy at-Turbatiyni asar muallifi deyib taxmin qilgan. Xullas, qanday bo'lmasin, asarni Tyemur yoki boshqa odam yozganligidan qat'iy nazar, u soxta emas, balki chin asardir. Agar unda bayon etilgan voqyealarni Nizomiddin Shomiyning Amir Tyemur tarixini o'z ichiga olgan mashhur «Zafarnoma»si yoki Sharafuddin Ali Yazdiyning shu nomdagi asari bilan solishtirilsa, bunga to'la ishonch hosil qilish mumkin. Masalan, Sharafuddin Ali Yazdiy shunday

yozadi: «...shu tartibda ulhazrat (Amir Tyemur) hayotining ulug` voqyealari va kyechinmalarini o`z ichiga olgan turkiy manzuma va forsiy asar, alohida-alohida nazm va [nasr] tarzida tuzilgan edi». ²

«Tyemur tuzuklari» ham fyeodalizm jamiyati sharoitida bitilgan boshqa asarlar singari xukmron sinfnining maqsad va manfaatlarini ko`zlab yozilgan, o`sha sinfnining dunyoqarashini ifoda etgan.

Asarda Amir Tyemurning harbiy yurishlari buzuvchi, odamlarning ko`payishining oldini oluvchi harakat dyeb, o`z ozodligi va vatanining mustaqilligini himoya qilgan xalqlar esa kofir, buzg`unchi, byezori (avbosh) dyeb atalgan. Tobyelikdan bo`yin tovlagan yoki shunga intilgan nye-nye yurtlarning xalqi «oq uylik» qilinib, o`zga yurtlarga majburan ko`chirib yuborilgan. Tyemurning o`zi esa odil va insonparvar podsho sifatida tasvirlanadi, uning shaxsi ko`p jihatdan idyeallashtiriladi.

Shunga qaramay, asarda fan uchun muhim ma`lumot va faktlar ko`p. Avvalambor, «Tyemur tuzuklari» Amir Tyemurning tarixi, uning zamonida, aniqrog`i, 1342-1405 yillar orasida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Tyemur va tyemuriylar davlati hamda qo`shinining tuzilishi, o`sha yillarda Tyemur davlatining qo`shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo`lgan munosabatlari haqida hikoya qiladi. Myen yuqorida bu asarda muhim va original ma`lumotlar ko`p, dyeb aytdim. Buni mutaxassisgina emas, balki asarni xolis va sinchiklab o`qigan har bir kishi byemalol ilg`ab olishi mumkin.

Asarda aytilishicha, davlat asosini o`n ikki ijtimoiy toifa:

1) sayyidlar, ulamo, mashoyix, fozil kishilar; 2) ishbilarmon, donish- mand odamlar; 3) xudojo`y, tarkidunyo qilgan kishilar; 4) no`yonlar, amirlar, mingboshilar, ya`ni harbiy kishilar; 5) sipoh va raiyat; 6) maxsus ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotiblar; 8) hakimlar, tabiblar, munajjimlar, muhandislar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahli hunar va san`atchilar; II) so`fiylar; 12) savdogar va sayyohlar tashkil etadi. Uning taqdirini esa uch narsa: podsho,

² Temur Tuzuklari. –T. 1991 yil 7-bet

xazina va askar hal qiladi. Ikkinchi misol. Qo`shin asosan o`n, yuz, ming va tumanga bo`lingan, o`n kishilik harbiy bo`linma tyepasida turgan boshliq-o`nboshi, yuz kishilik qismning boshlig`i-yuzboshi, ming kishilik qo`shin yetakchisi — mingboshi, tuman boshlig`i no`yon dyebo atalgan. Asarda ularning haq-huquqlari, oylik maoshi ham aniq ko`rsatilgan. Masalan, oddiy sipohiy mingan otining bahosi barobarida, bahodirlar 2-4 ot barobarida, o`nboshi qaramog`idagi askarga nisbatan ikki barobar ko`p, yuzboshi o`nboshidan ikki barobar ortiq maosh olishgan. Mingboshilarning maoshi esa yuzboshinikidan uch barobar ortiq bo`lgan.

Uchinchi misol. Amir Tyemur o`zining ulkan impyeriyasini uluslarga bo`lib idora qildi. Movarounnahrda boshqa uning tasarrufida bo`lgan barcha viloyat va mamlakatlar to`rt ulusga bo`lindi. Tyemurning to`ng`ich o`g`li Muhammad Jahongirga bir viloyat bilan 12 ming kishilik qo`shin, ikkinchi o`g`il Umar Shayxga Fors viloyati va 10 ming askar, uchinchi o`g`li Mironshohga Ozarbayjon, Iroq va Armaniston bilan 9 ming kishilik qo`shin, kienja o`g`li Shohruxga Xuroson, Jurjon, Mozandaron, Syeiston bilan 7 ming askar byerildi. Lyekin uluslar garchand markaziy xukumatga itoat etsalar-da, ma`lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining alohida davlat apparati, mustaqil qo`shini bo`lib, ularning markaziy hukumatga tobyeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlar uyushtirganda o`z qo`shini bilan qatnashish yoki oliy hukmdor talab qilganda askar yuborib turishdan iborat edi.

To`rtinchi misol. «Tuzuklar»da vazirlar, amirlar va voliylar haqida ham muhim ma`lumotlar kyeltirilgan. Masalan, Tyemur davlatini yetti nafar vazir: 1) mamlakat va raiyat ishlari bo`yicha vazir (bosh vazir);

2) vaziri sipoh, ya`ni harbiy ishlar bo`yicha vazir; 3) egasiz qolgan mol mulklarni tasarruf etish ishlari vaziri; 4) saltanatning kirim-chiqim ishlarini boshqaruvchi vazir, ya`ni moliya ishlari vaziri; 5, 6, 7) sarhad (chyegara) viloyatlarining ishlarini nazorat etib turuvchi vazirlar. «Vazirlar,— dyeyiladi

«Tuzuklar»da,— saltanat ustunlaridir... [ular] mamlakat obo-donchiligini, raiyatning tinchligini, sipoxdarning birligini, xazina boyligini doimo ko`zda tutadilar. Davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo`l qo`ymaydilar. Saltanatga zararli narsalarni qaytarishda molu-jonini ayamaydilar».

Amirlar haqidagi ma'lumotlar ham diqqatga sazovor. «Tuzuk-lar»da kyeltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, amirlar asosan harbiy kishilar bo`lishgan va Amir Tyemurga tobye' bo`lgan qirq aymoqdan, o`n ikkitasi: barlos, arg`in, jaloir, tulkichi, duldoiy, mo`g`ul, suldus, to`g`oy, qipchoq, arlot, totor va tarxonlar ichidan saylab olingan. Amirlik rutbasi Amir Tyemur faoliyatining dastlabki paytlarida u bilan birga bo`lgan 313 kishiga byerilgan. Bulardan yuztasi — o`nboshi, yuztasi — yuzboshi, yuztasi — mingbo-shi, to`rttasi — byeklarbyegi, bittasi — amir ul-umaro (amirlar amiri: bosh amir) bo`lgan. Qolgan sakkiz mansab, fikrimcha, saroy xizmatida bo`lgan mansabdorlardan ba'zi birlariga byerilgan bo`lishi kyerak, Bulardan boshqa yana o`n ikki kishiga birinchi, ikkinchi... o`n birinchi, o`n ikkinchi darajali amir dyegan unvon byerilgan. Un ikkinchi darajali amir odatda amir ul-umaroning noyibi hisoblangan. O`n ikki amirning har biriga bittadan bayroq va bittadan nog`ora, amir ul-umaroga bir bayroq, nog`ora, tuman — 10 000 kishilik qo`shin, tug` va chortug`, to`rt nafar byeklar- byegining har biriga bittadan, nog`ora, chortug` va burg`u byerilgan.

«Tuzuklar»da vazirlar, amirlar va hokimlarga byeriladigan in`omlar haqida ham gapirilgan. Masalan, qaysi bir amir biron qo`shinni yengsa yoki mamlakat olsa uni uch narsa: 1) tug`, nog`ora va bahodirlik martabasi; 2) davlat kyengashlariga byemalol kirish huquqi; 3) biron sarhadning noibligi bilan siylaganlar.

Rasmiy marosimlarda, ya'ni podshoning oliy majlislarida o`ltirish tartibi haqida ma'lumotlar ham diqqatga sazovor. Aytilishicha, sayyidlar, qozilar, ulamo, fuzalo, mashoyix, ulug` va oliy tabaqadagi kishilar podshoning o`ng tarafidan, amir ul-umaro, byeklarbyegilar, amirlar, no`yonlar, sardorlar, ulus, tumonot va qo`shunot amirlari, shuningdyek, mingboshilar, yuzboshilar, mansab va

martabalariga qarab, podshoning soʻl tarafidan oʻrin olgailar. Dyevonbyegi hamda vazirlar — taxt roʻbaroʻsidan, kalontarlar, kadxudolar³ — vazirlarning orqasidan joy olganlar. Bahodirlar, Qilichboz yigitlar — taxt orqasida, uning oʻng tarafidan, qorovullar taxt orqasida, uning chap tarafidan oʻrin olganlar va hokazo.

Maʼlumki, Tyemur tuzgan qoʻshin oʻzining stratyegik va taktik mahorati bilan oʻsha davrning eng mukammal va kuchli armiyalaridan hisoblanadi, uning tashkilotchisi va yetakchisi esa tajribali mohir sarkarda sifatida shuhrat topdi. «Tyemur tuzuklari»da oʻsha koʻshinning tuzilishi, qurollanishi, harbiy sanʼati haqida muhim maʼlumotlar keltirilgan. Xususan, uning jang oldidan safga tizilishi va joylashtirilishi haqidagi maʼlumotlari nihoyatda qimmatlidir.

Tyemur qoʻshinining oʻz davriga nisbatan nakadar mukammal boʻlganligi asarning Fotih Karimov matbasida 1889-1890 yili chop etilgan nusxasiga ilova qilingan kartalardan ham yaqqol koʻrinib turibdi.

I «Tuzuklar»da Amir Tyemur davrida alohida undiriladigan soliq va jarimalar haqida ham eʼtiborga molik maʼlumotlar bor. Oʻsha vaqtlarda soliq toʻlovchi xalqdan xiroj, molu jihat, sovurin, qoʻnalgʻa, boj, shilon puli singari soliq va jarimalar undirilgan. Soliq va jarimalarni yigʻishy va xarj qilishga alohida eʼtibor byerganlar. «Xirojni yigʻish vaqtida,— deyiladi ushbu asarda,— ikki vazir tayinlansin. Biri toʻplangan molni yozib raiyat ahvolini tyekshirib tursin, boj oluvchilar fuqaroga zulm qilib, ularning ahvoliga xaroblik yetkazmasinlar. Viloyatlarda yigʻilgan tamom mol-ashyoni kirim daftariga yozishlari lozim. Ikkinchi vazir esa chiqim daftariga yozib, yigʻilgan mollardan sipoh maoshiga taqsim qilsinlar». Shuni ham aytish kyerakki, xiroj baʼzan sugʻoriladigan yerlardan olingan hosilning uchdan bir qismi, yomgʻir suvi bilan bitgan yerlarda umumiy daromadning toʻrtidan bir qismi hajmida toʻplangan.

Myen yana «Tyemur tuzuklari»da tilga olingan ikkita masala ustida kisha tarzda toʻxtab oʻtmoqchiman:

³ Kadxudo — qishloq, jamoa oqsoqoli.

1.Asarda «turk-tojik» dyegan iborani ikki-uch yerda, birinchi maqolada ham, ikkinchi maqolada ham uchratdik. Bunda Tyemur va tyemuriylar davlatiga qarashli o`lkalarda turkiy xalqlar bilan yonma-yon tojiklar ham istiqomat qilganliklari, ular ham bu davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida rol o`ynagalliklari ko`rinib turibdi.

2.Yana bir-ikki joyda, xususan, Amir Tyemur faoliyatining dastlabki davri bilan bog`liq voqyealar bayonida, «o`zbyeklar», «o`zbyeklar jamoasi» dyegan atama va iboralar uchraydi. «Tuzuklar»da aytilishicha, ular o`sha vaqtlarda ham Movarounnahrda istiqomat qilganlar, maqalliy aqoliga jabr-sitam o`tkazganlar va go`yoki Tyemur ular bilan kurashgan. Bu yerda, chamasi, bir vaqtlar, aniqrog`i, Botuxon zamonida (1227—1255), 1251 yildan boshlab, Chig`atoy ulusining g`arbiy qismi (Movarounnahr) Oltin O`rdaning harbiy-siyosiy ta`siri ostiga tushib qolgan kyezlarda, Dashti Qipchoqdan shu o`lkaga ko`chib kyelib kolgan urug`lar va qabilalar xususida gap borayotganga o`xshaydi. Rashid ud-Dinning (XIII asr) «Jomye` ut-tavorix» hamda O`tamish hojining «Chingizinoma» (XVI asr boshida) asarida bu haqda ishonchli ma`lumotlar bor. Ma`lumki, Dashti Qipchoq aholisi, aniqrog`i, uning Oq O`rda va Shaybon ulusida istiqomat qilgan qismi XIV-XV asrlarda yozilgan tarixiy asarlarda «o`zbyek» nomi bilan atalgan. Bundan o`zbyeklar XIV-XV asrlarda paydo bo`lgan xalq ekan, dyegan fikr-xayolga bormaslik kyerak. O`zbyeklar ham, O`rta Osiyodagi boshqa xalqlar singari qadimiy xalq. Ular ham baqtriyaliklar, so`g`diylar, shoshliklar, xorazmliklar hamda parkanaliklarning avlodi hisoblanadilar, lyekin boshqa halqlarda ham bo`lgani kabi, faqat ularning nomi kyeyinroq paydo bo`lgan. Bu hayotiy haqiqat. Odatda, xalqning tarixi nomidan birmuncha oldin yuradi. Buni mutaxassis olimlar yaxshi biladilar. Yoki bu gaplar — «o`zbyeklar», «o`zbyeklar jamoasi» dyegan gaplar — asar fors tiliga tarjima qilingan paytda yuqorida nomi zikr etilgan Shoh Jahonning ko`rsatmasi bilan qo`shib qo`yilgan bo`lishi ham mumkin, chunki Boburiylarning Shaybon avlodi va ko`chmanchi o`zbyeklarga munosabati bizga

yaxshi ma'lum.

Asarning o'zbyekcha tarjimasi dastlab «Guliston» oynomasi sahifasida chop etilgan. Lyekin bu voqyea bundan qariyb 25 yil muqaddam 1967 yili bo'lgan. O'sha tarjima sharq tillarining bilimdoni Alixon To'ra Sog'uniy (1885—1976) tarafidan baja-rilgan edi. Mazkur tarjima, tarjimonning o'z so'ziga qaraganda («Guliston», 1967, № 1,16—17-sahifalar), O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari bosh idorasining kutubxonasida saqlanayotgan nusxa asosida amalga oshirilgan odi. Lyekin mazkur nashr bilan yaqindan tanishganimizda uning bir qator juz'iy kamchiliklari aniqlandi: birinchidan, o'shanda Alixon To'raning tarjimasi ma'lum sabablar bilan to'la tarzda chop bo'lmagan ekan. Ikkinchidan, tarjima eski o'zbyek tilida bo'lib, uni bu tildan xabarsiz kishi maxsus lug'atlarsiz o'qib tushunishi qiyin. Uchinchidan, Alixon To'ra tarjimasining tushirib qoldirilgan joylari ham aniqlandi va nihoyat, uning ko'p joylari erkin tarjima qilingan; matndan chiqib kyetish hollari ham uchraydi. To'rtinchidan, ko'p o'rinlarda nomlar va atamalar noto'g'ri yozilgan. Domlaning tarjimasini qaytadan nashr etish masalasi o'rgaga qo'yilganda uning mana shu kamchiliklarini bartaraf qilish zarur dyeb topildi. Ana shu maqsadda «Tuzuklar»ning yuqorida qayt etilgan tarjimasi asl nusxa (O'zbyekiston SSR Fanlar Akadyemiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmasi, inv. № 8201) hamda uning hijriy 1285 (milodiy 1868) va hijriy 1307 (milodiy 1889—1890) yillarda chop etilgan toshbosma nusxalari bilan solishtirildi va Alixon To'ra Sog'uniyning tarjimasi jiddiy ravishda tuzatildi. Bu o'ta og'ir ish istye'dodli yosh sharqshunos olim Habibullo Karomatov tarafidan bajarildi. Asarning mazkur nashri yuqoridagi nusxalar asosida qaytadan tarjima qilindi, dyesak ham xato qilmagan bo'lamiz. Tarixiy va jug'rofiy izohlar B. Ahmyedov, Amir Tyemur shajarasi esa H. Karomatov tarafidan tuzildi.

Bu tarjima «Sharq yulduzi» oynomasining 1989 yildagi, 8 - so - nida o'quvchilarga taqdim etilgan edi. «Tyemur tuzuklari» ning ushbu

nashrida esa jurnalxonlarning mulohazalari hisobga olinishi bilan birga, matn mavjud qo'lyozma va toshbosma nusxalar, bilan yana bir bor qiyoslab chiqildi, lozim topilgan o'zgarishla kiritildi.

Nima uchun avval Tyemur va tyemuriylar tarixiga oid boshqa asar, emas, balki «Tyemur tuzuklari» chop etilayapti dyegan savol tug'iladi.

Birinchidan, bu faqat Amir Tyemurning tarjimai holidan iborat asar emas, balki Movarounnahrning hali yaxshi o'rganilmagan qariyib

60 yillik ijtimoiy-siyosiy tarixi hamdir. Ikkinchidan, bu asosan Amir Tyemur asos solgan nisbatan markazlashgan fyeodal davlatning tuzilishi, XIV asrda jahonga dahshat solgan Tyemur qo'shinining tarkibi, fyeodal munosabatlari va boshqa ilmiy masalalarni o'rganishda muhim manba rolini o'tashi mumkin. Qolavyersa, u Tyemur shaxsining naqadar ziddi - yatli ekanligani ochib byeradigan asardir.

Fikrimcha, bu asarni chop qilib to'g'ri ish qilindi. U avvalam - bor, tarixiy o'tmishni bilishni istagan ko'p sonlik o'quvghilar xohish-istagining inobatga olinishidir. Axir «Har bir xalq o'z tiliga, o'z tari - xiga ega. U o'z ajdodlarini bilishni istaydi.⁴

Asar dastlab eski o'zbyek (chig'atoy yoki o'rta osiyocha turkiy) tilida ta'lif etilgan. Sharqshunoslardan N.D.Mikluxo-Maklay, Ch. Ryo, G. Ete, Ch. A. Storilar fikriga ko'ra, uning bir qo'lyozma nusxasi Yaman mamlakatining oliy hukmdori Ja'far poshsho kutubxonasida saqlangan. «Tuzukot» ning fors tiliga tarjimoni Mir Abu Tolib husayniy at-Turbatiy tarjima muqaddimasida Arabistonning muqaddas joylariga, ya'ni Makkayi Mukarrama va Madinayi Munavvaraga haj qilib qaytishida Yamanga safari chog'ida Ja'far poshsho kutubxonasida turkiy tilda bo'lgan mazkur asarni topgani va u Amir Tyemurning hayot yo'li haqida o'zi yozgan asar ekanligini ta'kidlaydi. «Tuzukot» ning o'sha qo'lyozma nusxasi saqlanib qolganmi, yoki asarning turkiy tildagi boshqa

⁴ A.Sagdullayev, B.Aminov, U.Mavlonov, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyyoti. – Toshkent, 2000 yil, 32-133 betlar

nusxalari bo'lgan-bo'lmagani haqida ma'lumot yo'k. Shunga qaramay, asar va uning bir qismi bo'lgan «Tuzukoti Tyemuriy» ning dastlab turkiy tilda yozilgani haqidagi bor ma'lumotlar xususida qo'lyozma asarlar tavsiflari kataloglarini tuzuvchilarning barchasi bir xil fikrdalar.

Amir Tyemur o'zining ulkan davlatini o'g'illari, nabiralari, yaqin qarindoshlari yordamida boshqargan. Movarounnahrdan tashqari boshqa yerlar ulus tarzida ularga taqsimlab byerilgan. Sohibqiron Kobul, g'azna va qandahor viloyatlarini, to Sind daryosigacha bo'lgan yerlar bilan qo'shib, o'n ikki ming otliq askar bilan to'ng'ich o'g'li Jahongirga in'om qildi. 1376 yilda u vafot etgach, bu yerlarni, Balx viloyatini ham qo'shib, Jahongirniig o'g'li Pirmuhammadga in'om etdi. Ikkinchi o'g'li Umar-shayxga Farg'onani in'om etdi; so'ngra 1393 yilda uni Fors viloyatiga ko'chirdi. Umarshayx otasidan o'n ming kishilik qo'shin oldi. Amir Tyemurning uchinchi o'g'li Mironshoh 1380 yilda to'qqiz ming kishilik qo'shin bilan Xurosonga jo'natilgan edi, 1393 yilda esa Tabrizga o'tkazildi. Elxoniy halokuxon (1256—1265) ning taxti Mironshohga nasib etdi. Uning ulusi g'arbny Eron, Ozarbayjon va Iroqni o'z ichiga olgan edi. Ushanda Amir Tyemur Xurosonni kyenja o'g'li Shohruhga in'om etdi. Otasi unga sakkiz ming kishilik qo'shin ajratdi. Amir Tyemur bu yerda turk-mo'g'ul xalqlarining qadimgi yo'siniga amal qilgan, Chingizxon asosiga tayangan.

Uluslar markaziy hokimiyatga bo'ysungani bilan ma'lum darajada o'z mustaqilligini saqlab qolganlar. Ulus boshliqlarining ham o'z davlat apparati, xazinasini va qo'shini bo'lgan. Ularning markaziy hokimnyatga qaramligi xirojning ma'lum qismini markaziy hukumat xazinasiga jo'natib turish va buyruqqa binoan o'z ko'shinini olib podshohga yordamga yetib bo-rishida o'z ifodasini topgan. Amir Tyemur hayotligida ulus boshliqlarining mustaqillikka intilishi ochiq-oydin ko'zga tashlanmagan edi, ammo sohibqiron vafotidan kyeyin boshboshdoqchilik butun kuchi bilan namoyon bo'ldi.

«Tuzukoti Tyemuriy»da fyeodal yer egaligining turlari va shakllari haqida ham ma'lumot bor. Masalan, iqto', turli-tumai soliq va jarimalar shular jumlasidandir. hosilning uchdan birigacha olinadigan xiroj asosiy soliq bo'lgan. «Tuzukot»dagi yana bir muhim narsa — ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga doir ma'lumotlardir. Asarda aytilishicha, Amir Tyemur qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirganlarni rag'batlantirgan. Bunday ishga ko'l urganlarga Amir Tyemur hukumat katta imtiyozlar byergan. Bu haqda «Tuzukot»da quyidagilarni o'qiymiz: «Birinchi yili undan hyech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan byerganini olsinlar, uchinchi yili esa qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'ilsin». «Ulik» yerlarni hosildor yerlarga aylantirish shart-sharoitlari haqidagi ko'rsatmalar ham diqqatga sazovordir: «Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa (davlat yerlarini boshqaruvchi mahkama) tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kyerakli narsalar byersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga ko'priklar solsinlar, yo'l ustida, har bir manzilgohga rabotlar qursinlar».

Amir Tyemur zamonida oliq-soliqlar muayyan tartibda byelg'ilangan edi. Ent muhimi, yerdan olinadigan xiroj miqdori xam, chorvadan olinadigan soliq miqdori ham byelgilangan edi. Muhosillar (soliq yig'uvchilar)ning faoliyati ustidan nazorat o'rnatilgan. «Amr qildimki, — dyeyiladi «Tuzukot»da, — raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga tushirib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshok qilib qo'yishdan ehtiyot bo'lish zarur, chunki raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashuviga olib kyeladi. Xazinaning g'arib bo'lib qolishi esa, sipohning tarqalib kyetishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning zaiflashuviga olib boradi».

Amir Tyemur armiyasi tashkiliy va harbiy tuzilishda, shuningdyek, jang olib borish usullari borasida o'z davrida eng katta va qudratli armiya edi. Lyekin tashkil etilishi qadimgi turklardagidyek, Ug'uzxon va Chingizxon tuzgandyek

edi. qo'shin o'n minglik (tuman) tartibida tuzilib, o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lingandi. qo'shinlar ko'ngillilar tarzida tuzilgan bo'lib, otliqlar va piyodalardan iborat edn. qurollar o'q-yoy, nayza, qilich, gurzi, tabar, manjaniq va hokazolardan iborat bo'lgan. Jangovor tartib, mashhur «jangi loy» (1365) davrida, qadimiy turklar va Chingizxon davrida bo'lganiddek, g'ul markaz), barong'or (o'ng qo'l), javong'or (so'l qo'l), qanbul (qanot himoyasi), manglay (ilg'or qism), hirovul (ort tomon) dan iborat qilib tuzilgan. Bunday saf tuzishda markaz qanotlarga qaraganda kuchsiz bo'lgan. Unda qorovul, zahira qism bo'lmagan. qeyinchalik 35 yil davomida o'tgan uzluksiz yurishlar va urushlar jarayonida Amir Tyemur o'z armiyasini takomillashtirdi va har qanday sharoitda jang qila oladigan qobiliyatga ega qildi. Masalan, o'sha davrning eng yirik jangi, ya'ni Amir Tyemur bilan To'xtamish o'rtasida 1391 yilda bo'lgan qunduzcha mavzyeidagi urushni olaylik. Bu urush jarayoni Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan batafsil bayon qilingan va M. Sharmua va M. I. Ivanin tarafidan maxsus o'rganilgan. Shunga ko'ra, Amir Tyemurning jangovor tartibi butunlay boshqacha ko'rinishda bo'lgan. Eng avvalo Amir Tyemur o'z armiyasini yetti qo'l (korpus) ga bo'lgan. Ularga amir Sulaymonshoh, shahzodalar Muhammad Sulton, Mironshoh va Umarshayx, amir Byerdibek kabilar qo'mondonlik qilishgan va markaz, o'ng va so'l qanbuldan joy olganlar. Ba'zi qo'llar Amir Tyemur tomonidan zahiraga ehtiyot uchun ajratilgan. Bunday tartib qanotlarnigina emas, balki markazni ham birmuncha kuchaytirgan. Markaz ixtiyorida endi ilg'or, qanbul va ehtiyot qismlar bo'lib, u jang taqdirini hal etgan, albatta.

Qo'shinni to'plash va ularni murchillarga taqsimlash bilan tavochilar shug'ullanishgan. Yurish vaqtida har bir askar o'zi bilan kamon va 30 ta o'q, chapar va tura, qilich va bir oyga yetarli ozuqa olishi lozim bo'lgan. har bir askar ikki ot, har o'n kishi o'zi bilan birga bir hayma (chodir), ikki soyabon, bir byel, o'roq, arra, tabar, juvoldo'z, yuz dona igna, arqon, charm myesh, qozon olgan. Qo'shinlardagi harbiy qurilishning bu va boshqa masalalari Amir

Tyemurning «Tuzukot»ida batafsil bayon qilinadi. Bu hol, o'z navbatida, Urta Osiyo xalqlarining harbiy tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga molikdir.

Amir Tyemur hayotiy tajriba kasb etgan, insonni qadrlay oladigan va odamlarni bir-biridan farq qila oladigan shunday bir arbob ediki, undaylarni o'tmish tojdorlari orasida ham, zamonamiz arboblari orasida ham topish amri maholdir. Uziga o'rinbosar, noib tayinlashda unta hayotiy tajribagina emas, tabiiy, ya'ni xudo byergan qobiliyat ham juda qo'l kyeldi. Unda shunday ilohiy qudrat bor ediki, shu kuch tufayli u og'ir kunlarda ham, qozoqlik yillarida ham, jasur va iqtidorli kishilarni o'ziga ergashtira bildi va ulardan sadoqatli hamkorlar, fidokorlar tayyorlay oldi. Joqu barlos, amir Muso, amir Jaloliddin, amir hinduka, Iki Tyemur, Sulaymonshoh, Xudoydod, Byerdibyek, Shohmalik, Shayx Nuriddin kabilar shunday kishilar sirasidan edi. Bir nyecha misol kyeltiramiz, Mo'g'uliston xoni Ilyosxojaqa qarshi kurash (XIV asrning 60-yillari) chog'ida bir guruh amirlar uni tark etmoqchi bo'lganlarida yuz byergan ahvolni tuzatish maqsadida u o'z qobiliyatini ishga soldi. «Tuzukot»dan o'qiymiz: «Amir Joqu, Iki Tyemur, amir Sulaymon va amir Jaloliddinlarni xilvatrok yerga chorladim va ularni o'zimga ittifok, qilmoqchi bo'ldim. Xilvatda ular bilan suhbat qurib, «davlatimga shyerik bo'lasizlar», — dyedim. Bu bilan o'zlariga ishonch va myenga xizmat qilishda qat'iyat uyg'otdim. Shunga o'xshash myen bilan ittifoki buzilgan toifadagi boshqa amirlarni ham birma-bir holi joyga chorlab, har qaysisi bilan alohida gaplashdim. Bulardan mol-dunyoga hirs qo'ygan ochko'z va tamagirlariga mol-ashyo va'da qildim, mansab-martabaga va mamlakatlarni boshqarishga ko'z tikkan amalparastlarni qo'lim ostidagi mamlakat va viloyatlardan biriga hokimlik qilishga nomzod qilib ko'rsatdim. Ularning hammasini umid va qo'rqinch orasida saqladim. har biriga bittadan noib va kutvol tayinladim. qolgan lashkarlarni ham luqma va xirqa bilan umidvor qildim; shirin so'z va ochiq yuz bilan ularni o'zimga rom etdim. qilgan bir xizmatini o'n barobar qilib taqdirlab, dillarini xushnud etdim. Natijada myeni qo'llab-quvvatlaganlar ham, tyeskari bo'lgan munofiqlar ham barchasi endi

atrofimda birlashdi. har yerda va har ishda birlik-ittifoqlikni qo'ldan byermaslikka, amru farmonimdan chiqmaslikka va'da byerib, myen uchun mol-jonlarini ayamay, maydonda jonbozlik qilishga ahd qildilar». Og'ir kunlarda Amir Tyemur oddiy sipohiylariga nisbatan ham shu yo'sinda ish tutgan. «...lyekin lashkarlarim bu ishda myen bilan hamjihatlik qilmadi. Lashkarlarimni atrofimga birlashtirmoqchi bo'ldim. Shuning uchun ba'zilariga muruvvat, myehribonlik qildim, boshqalari bilan kyelishishga intildim, yana bir guruhini esa moludunyo bilan o'zimga egmoqchi bo'ldim. Yaxshi so'z, ahdu paymon va va'dalar bilan qolganlarining ko'nglini ko'tarishni maslahat ko'rdim».⁵

Asarning Amir Tyemurning dastlabki hayoti va faoliyatidan bahs etuvchi birinchi qismida «o'zbyeklar», «o'zbyeklar toifasi» dyegan iboralar tilga olinib, ularning mahalliy aholiga nisbatan o'tkazgan jabru zulmi va ularga qarshi Amir Tyemurning kurashgani haqida gap boradi. «Uzbyeklar», «o'zbyeklar toifasi» dyeyilganda o'zbyek elini nazarda tutmaslik lozim. Bu yerda gap Dashti qipchoqning turk-mo'g'ul qabilalari xususida bormoqda, ya'ni ularning Xorazmning katta qismida (1227) va Chig'atoy ulusida (1251 yildan) o'z hukmronliklarini o'rnatgan boshliqlari haqida gap kyetadi. XIV—XV asrlarda arab va fors tillarida bitilgan manbalarda, masalan, hamdulloh qazviniiy (1281—1350), Nizomiddin Shomiiy, al-Kalkoshandiiy (vafoti 1418 yil), Sharafiddin Ali Yazdiy asarlarida, Muiniddin Natanziiyning «Iskandar majhuli» asarida, Abdurazzoq Samarqandiiy, Xondamir va boshqa olimlarning asarlarida ular umumiy nom bilan «o'zbyek», ularning Dashti qipchoqning sharqiy qismida joylashgan mamlakati «mamlakati o'zbek», «ulusi o'zbek» dyeb atalgan. Buning tarixi aslida bunday. Ma'lumki, Chingizxon hayotligidayoq o'zining ulkan davlatini o'g'illariga taqsimlab byerdi. Ushanda to'ng'ich o'g'li Jo'chixonga Irtish daryosidan tortib to «Mo'g'ul otlarining tuyog'i yetgan joylar» gacha ulus qilib byerildi. Uning ulusi tarkibiga Sig'noq, Barchinlig'kyent, Yangikyent,

⁵ Temur Tuzuklari. –T. 1991 yil 78-bet

Ashanas shaharlaridan iborat Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmning shimoli-g'arbiy qismi ham kirgandi. Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyning ulusi Qoshg'ar, Yettisuv, Movarounnahr va Xorazmning Kot, Xivak shaharlaridan iborat janubi-sharqiy yurtlarni o'z tarkibiga olgan edi. Ko'rinib turibdiki, har ikkala ulus hududlari janubi-g'arbda bir-birlariga tutash bo'lgan.

Jo'chi ulusi (Oltin Urda) ayniqsa Botuxon zamonida kuchaydi. Oltin Urda Jo'chi ulusining-ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagina emas, Ug'adoy qoon, Munka koon davridagi Mo'g'ulistonning siyosiy hayotida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. «(Botuxon) mo'g'ullarning barcha yurishlarida faol qatnashib, o'z qo'shinlarini asosiy armiyaga yordamga jo'natar va tushgan o'ljadan o'z ulushini olish umidida edi». Evaziga u o'ljagina emas, butun-butun viloyatlarni o'z ulusiga qo'shib olgan. Utamish hojining «Chingiznoma» asarida aytilishicha, Botuning bunday uluslari Movarounnahrda ham, Eronda ham bo'lgan. Bu hol Botuxonga Chig'atoy ulusining ichki siyosiy ahvolidan xabardor bo'lib turishga, kyezi kyelganda uni nazorat qilib turishga imkon yaratgan. hujjatlarga murojaat qilamiz. Chig'atoyning nabirasi qora haloku (Xara Xulaku) uzok vaqt taxtda mukim tura olmadi (birinchi marta 1241—1247, ikkinchi marta 1252). U Guyuk qoon (1246—1249) tomonidan ma'zul etildi va bu to'ntarishda Botuxonning ham qo'li bor edi. Chig'atoy ulusida taxtga Chig'atoyning o'g'li va Guyuk qoonning yaqin do'sti Yesu Munka (1247—1252) o'tqizildi. Yesu Munka uzoq vaqt hukmronlik qila olmadi, chunki u ichkilikka byerildi, davlat ishlari bilan shug'ullanmadi. Guyuk qoon vafotidan kyeyin Mo'g'uliston davlatining ijtimoiy-siyosiy hayotida Botuxonning mavkeyi oshdi. Bu daf'a Botuxon taxtga Guyuk qoonning byevasi Ug'ul Gaymishni o'tqizdi. Botuxonning bu ishiga Ug'adoy qoonning avlodi qarshi chiqdi. Bularni Chig'atoy sulolasidan Yesu Munka qullab-quvvatladi.⁶ Shundan kyeyin Botuxon 1251 yili qoraqo'rumda qurultoy chaqirtirib, Tuluy qoonning o'g'li Munka (1251 —1260) ni taxtga

⁶ R.X. Muttazayeva. O'zbekiston tarixi. – toshkent, 2003 yil

o'tqizdi. Shuni ham aytish kyerakki, Munka qoon taxtga o'ltirgandan so'ng Botuxonning tashabbusi bilan uning dushmanlari yarg'uchi (qozi)ning qo'liga topshirildi, Yar-guchining hukmi bilan malika Ug'ul Gaymish, qadag'och xotun (Ug'adoy qoonning nabirasi Shyeramunning onasi) va boshqa shahzodalardan iborat yetmish yetti nafar shahzoda va amirlar .qatl etildi. Yesu Munkaning taxtdan tushirilgani e'lon qilindi. Uning o'rniga qora haloku tayinlandi. Ammo u poytaxtga yetib borolmay Oltoyda vafot etdi. Lyekin qo'shinlari yo'lda davom etib, Yesu Munka qarorg'ohiga yetib oldilar. Yesu Munka ko'lga olinib, Botuxonning huzuriga jo'natildi. Chig'atoy ulusi xonligiga qora halokuning byevasi Ariq Buqoning qizi Ergana xotun va uning voyaga yetmagan o'g'li Muborakshoh tayinlandi. Lyekin bular nomigagina xon edilar. Asosiy hokimiyatni Botuxon va Munka qoon nomidai mashhur Mahmud Yalavochning o'g'li Mas'udbyek boshqargan.⁷

Oltin Urdaning Chig'atoy ulusiga ta'siri Botuxon va Byerkaxondan kyeyin ham davom etdi, XIV asr boshlaridan esa yanada kuchaydi.

Bu borada Mirzo Ulug'byekning «Tarixi arba ulus» asarida kyeltirilgan quyidagi ma'lumot e'tiborga molikdir. Asarning Oltin Urda xoni Byerkaga bag'ishlangan bobida uning yoshligi Buxoroda kyechgani, mashhur olim Sayfuddin Boxarziy (vafoti 1261 yil) qo'lida ta'lim olgani haqida gapiriladi. Boshqa bir o'rinda Tug'liq Tyemur zamonida (XIV asr) Oltin Urda qo'shinlarining Movarounnahr hududiga ikki bor bostirib kirgani haqida gap boradi. Bu ma'lumotlar juda qimmatlidir.⁸ «Tuzukot»da ana shu «o'zbyeklar» haqida gap boradi. Amir Tyemur ayni shu Oltin Urda o'zbyeklari, ko'chmanchi o'zbyeklarga qarshi kurashgan. Biz «Tuzukot»ning ayrim jihatlari borasida so'z yuritib, bu ajoyib yodgorlikdan ayrim misollar kyeltirdik, xolos. Uni jiddiy tadqiq etish ishlari hali oldinda. Eng avvalo, fikrimizcha, bu asarning tanqidiy matni tuzilishi lozim, zyero, «Tuzukot»ning bizgacha yetib kyelgan qo'lyozma nusxalari son-sa-noqsiz

⁷ Xalq ta'limi. – Toshkent, 3-son 2007 yil 11-bet

⁸ www.ref.uz.

bo'lishidan tashqari, ular bir-biridan farq qiladi, sukutli, ba'zi o'rinlarda o'qib bo'lmas darajada. Yuqorida qayd etilganidek, manbaning chop etilgan nusxalari ham mavjud. Ammo ular ham talabchan kitobxonlarni, ayniqsa ilmiy xodimlarni qanoatlantira olmasa kerak.

« Tuzuki Temuriy » ning nusxasini dastlab Hindistonda yashagan ingliz zobiti mayor Devi 1779 yilda Angliyaga olib ketgan. So'ngra arab tili professori ingliz mayori Uaytga uni ko'rib chiqish uchun topshirgan. Uayt « Tuzuki Temuriy » ning forscha matnini nashrga tayyorlagan mayor Devi esa uni inglizchaga o'g'irgan va ko'rsatgich izohlar bilan taminlagan. Asar matni va inglizcha tarjimasi 1783 yilda Buyuk Britaniyaning Oqsford shahrida nashr etilgan. Aynan shu nashr dunyo mamlakatlariga keng tarqalgan va « Tuzuki Tumor » yoki « Tuzukoti Temur » nomi bilan shuhrat topgan. Oqsford nashri keyinchalik hech bir o'zgarishsiz, jahonning ko'plab shaharlarida, masalan, 1785yili, Kalkutta, 1868, 1963 va 1992 yillarda Tehron, 1890 yilda Bombeyda chop etilgan. Bu nashrlar ko'plab mamlakatlarga, jumladan O'rta Osiyoga ham tarqalgan. Uayt va Devi nashr etgan forscha matndan taniqli sharqshunos L.Langlening fransuz tiliga o'g'irgan tarjimasi 1787 yil Parijda nashr etilgan. 1782 yili L.Lahglening fransuzcha nashridan N.P. Ostrumov rahbarligida Toshkent gimnaziyasining bir guruh talabalari asarni rus tiliga tarjima qildilar. 1968 va 1992 yillarda I.M. Mo'minov yozgan qisqa so'z boshi bilan N.P. Ostrumov nashri chop etildi « Temur tuzuk » larining Devi va Uayt nashri asosida chiqarilgan Alixonto'ra Sog'uniy 1967 yili Toshkentda « Tuzuki Temuriy » ni o'zbek tiliga tarjima qilgan va Guliston jurnalida tarjimaning faqat 30 foizi e'lon qilingan. Asar to'liq chop etilmaganligining sababi va 1989 yili o'zbek tiliga qilingan yana bir tarjima xususida akademik B.Ahmedov quyidagi fikrni bildirgan; «...O'sha vaqtda jamiyatimizdagi ahvol, aniqrog'i rasmiy hokimiyat ma'murlarining o'tmish tariximizni o'rganishga no'lgan yomon munosabati natijasida Alixonto'ra Sog'uniy tarjimasi to'la tarzda bosilib chiqmadi. Unda, masalan, ayrim jumlalarning tashlab ketilganligi aniqlangan, aniq matndan chetga chiqish hollari

mavjud kishi nomlari , jo`g`rafiy atamalarda va istilohlarda g`alatliklar mavjud. Muhim tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, jo`g`rafiy va etnik nomlar, turli atamlar va ularning sharhlari erkin talqin etilgan. 1989 yilda Alixonto`raning o`sha nashrini «Tuzuki Temur » ning Bombeyda chop etilgan forscha matniga solishtirgan holda o`zbek tilida yana bir tarjima amalgam oshirildi. Uni o`zbeksharqshunosi Hamidulla Karomatov hozirlab,oldin Sharq jurnalida, so`ngra alohida kitob holida (1991) G`ofur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyotida nashr ettirdi.Asarning « Sharq yulduzi » jurnalida chop etilgan tarjimasida 1991 yilda Boku va Olmaotada ham Temur Tuzuklari ning qozoq va ozarbayjon tillaridagi tarjima kitoblari nashr etildi. « Temur Tuzuklari » ning Subxon Baxshi (Dehli 1855) v Muhammad Fazl ul-Haq (Bombay, 1908) taraflaridan amalga oshirilgan urducha tarjimalari mavjud.⁹

Amir Temur yo'l qurilishiga katta ahamiyat berdi. Yevropa mamlakatlaridan Xindiston-Xitoygacha olib boradigan va yerdan O'rta Osiyo orqali o'tadigan tarixda «Biy» deb atalgan xalqaro yo'lni barcha asosiy yo'nalishlarini egallab olgan Temur bu yo'lda karvonlarni xavfsizligini ta'minlash uchun tadbirlar ko'rdi. Mashriq hamda Mag'rib, ya'ni Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari har tomonlama rivojlanishiga e'tibor berdi. Amir Temur katta diplomat sifatida ham mashhurdir. U Vizaitiya, Venesiya, Genuy, Fransiya, Angliya bilan ya'ni o'sha davrdagi ma'lum va mashhur bo'lgan Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy aloqa o'rnatish va mustahkamlash sohasidagi faoliyatini rivojlantirdi. XV asrda Amir Temur ga «Evropa xalaskori» degan yodgorlik o'rnatilgan. XVI asrda K. Marro «Buyuk Temurlan» degan pesa yaratadi. A.G. Gendel XVIII asr boshida «Temurlan» degan opera yozadi. Akademik V.V. Bartoldning bir tomonlama, uning vayronagarchilik qilganligi haqida fikriga zid o'laroq Temurni buyuk sarkarda, davlat arbobi, bunyodkor va ijodkor ekanligini

⁹ O'zbekiston milliy ineklopediyasi. 137 – bet. Toshkent, 2005 yil

tan olishga majburmiz Chunki, Amir Temur tashabbuskor quruvchi edi, ulkan bog'u-roq'lar bilan o'radi, shahar va qishloqni tikladi, suv inshootlari qurdirdi.

X U L O S A .

Amir Temurning mag'lub ellarning ma'naviyatiga daxl qilmaganligi, aksincha, ularga ravnaq berganligi, shu jumladan, o'z millati va Vatani kamoloti uchun sidqidil xizmat qilganligi, qadami yetgan joylarni bir tug' ostida birlashtirganligi va oqibatda kuchli, mustahkam davlat barpo etgani "Temur tuzuklari"da bobomiz tomonidan qayd etilgan va hayot tomonidan tasdiqlangan tarixiy faktlar orqali ko'rsatiladi. Sohibqiron Amir Temurning hayoti va faoliyatini, u qoldirgan boy ma'naviy meros va qadriyatni o'z davridan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun ham muallif, birinchi navbatda, o'sha davrning tarixiy muhiti, Amir Temurning xalq ozodlik harakatiga yetakchilik qilishidan boshlab, to Turon taxtini egallashi yo'lida olib borgan kurashlari, mamlakatni obod etishga doir azmu shijoatlari, davlatni boshqarish borasida joriy etgan qonun-qoidalar, fuqaro va raiyatga, mag'lub etilgan o'zga yurt hukmdorlari va ularning aholisiga bo'lgan adolatli munosabatlari, aybini tan olib kelganlarga nisbatan kechirimlilik kabi buyuk fazilatlarini o'z davrida bu haqda yozilgan nodir asarlar asosida ko'rsatib beradi. Vatan va xalq oldidagi burchni nihoyatda teran anglab ish tutgan Amir Temur dahosi beqiyos. Uning amri bilan bunyod etilgan yo'l va ko'priklar, qasrlar, bog'lar, muhtasham me'moriy obidalar, ko'rkam masjidlarining xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati ham benihoyadir. Shu ma'noda ulug' bobokalonimiz tarixining barcha jihatlarini to'kis o'rganish va uning vasiyatlariga amal qilishda hikmat ko'p. Zotan, Amir Temur bobomiz tarixi, Vatanimizning olti asrlik muhtasham tarixi tiklanishi hamdir. Xulosa qilib aytganda, «Temur tuzuklari»da Amir Temurga xos bo'lgan muhim fazilatlar, davlatni idora qilish usuli bilan yaqindan tanishish mumkin, desak xato bo'lmaydi. Jumladan, unda *«Menga yomonliklar qilib, boshim uzra*

shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim», — deganligining o'zi fikrimizning yorqin isbotidir. Ushbu asarda, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Qisqa qilib aytganda, Amir Temur sharqona demokratiyaga, qonunga, urf-odatlarga asoslangan buyuk davlat barpo qilib, tarixda o'chmas iz qoldirdi. Mustaqillik in'om etgan eng ulug' ne'matlardan biri — bu, xalqimizning o'zligini bilish, o'z tarixini emin-erkin o'rganish huquqi bo'ldi. Qadriyatlarimizni tiklash, merosimizga xolis munosabatni qaror toptirish, aziz allomalar nomini sharaflash, ularga bugungi avlodning yuksak hurmat-e'tiborini bajo keltirish istiqlool yillarida amalga oshirilgan behad ulkan savobli ishlar sirasidandir. O'tgan qisqa davr mobaynida bobokalonimiz buyuk Sohibqiron Amir Temur hazratlarining tabarruk nomi, hayoti va mislsiz jasoratlarga to'la faoliyati xalqimiz ma'naviy dunyosining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani shundan bir dalolat. Xulosa qilib aytganda, «Temur tuzuklari»da Amir Temurga xos bo'lgan muhim fazilatlar, davlatni idora qilish usuli bilan yaqindan tanishish mumkin, desak xato bo'lmaydi. Jumladan, unda «*Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim*», — deganligining o'zi fikrimizning yorqin isbotidir. Ushbu asarda, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Zero, bugungi kunda milliy istiqlool g'oyasini shakllantirishda «Temur tuzuklari» muhim nazariy manbalardan biri sifatida katta ahamiyatga egadir. Qisqa qilib aytganda, Amir Temur sharqona demokratiyaga, qonunga, urf-odatlarga asoslangan buyuk davlat barpo qilib, tarixda o'chmas iz qoldirdi. Uning e'tiqodiga ko'ra, davlat davlatligini, din esa dinligini qilishi kerak. Bu g'oya bugungi zamonda ham o'z ahamiyatini zarracha yo'qotgani yo'q. Xuddi shu tufayli Amir Temur davrida Islom dini ravnaq topdi, yuksaldi. Shu bilan birga, xalq dunyoqarashi, tafakkur tarzi ham ancha rivojlandi. Aholi va davlat o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos tarzda mutanosib tus oldi. Xulosa o'rnida

aytganda, Amir Temur nafaqat buyuk davlat arbobi, tajribali diplomat va mahoratli sarkarda, shu bilan birga betakror bunyodkor, tashkilotchi, ilm-fan, san'at, hunarmandchilik va savdo-sotiq rahnamosi hamdir

Foydalangan adabiyotlar .

1. Xalq ta'limi. – Toshkent, 3-son 2007 yil 11-bet
2. R.X. Muttazayeva. O'zbekiston tarixi. – toshkent, 2003 yil
3. A.Sagdullayev. B.Aminov, U.Mavlonov, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyyoti. – Toshkent, 2000 yil, 32-133 betlar
4. Temur tuzuklari. – Toshkent, 1991 yil
5. O'zbekiston milliy inseklopediyasi. – Toshkent, 2005 yil
6. www.google.uz
7. www.ref.uz